

O'ZBYEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BANK ISHI” KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK:

NUSRATOV AZIZBEK SAN'ATILLAYEVICH

O'ZBEKİSTONDA INVESTİTSİYA SIYOSATINI AMALGA
OSHİRİŞDA İCHKİ ZAXİRALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

70410403– Investitsiyalri boshqarish (tarmoq va sohalar bo'yicha)
mutaxassisligi bo'yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy rahbar:


PhD., dots. S.S. Nematulloyev

TOSHKENT – 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “Bank ishi” kafedrasida dastlabki himoyadan o’tgan.

—sonli bayonnomma “10” aprel 2024 y.


Kafedra mudiri: R.Tojiev



imzo

sana


Ilmiy rahbar:: S.S. Nematulloyev



imzo

sana

Talaba: A. Nusratov



imzo

sana

Dissertatsiya Biznes boshqaruv fakultetida 2024 yil “ ”

№ raqami bilan ro’yxatga olingan.

Fakulteti dekani



U.R.Xalikov.

ANNOTASIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiya ishida investitsiya siyosati, O'zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishda ichki zaxiralardan foydalanish, ularni olib borishning nazariy asoslari, amalga oshirish xususiyatlari va tartiblari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga O'zbekiston investitsiya salohiyati uning zahiralari, aholining bo'sh pul mablag'lari, ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanishdagi muammolar tahlil qilingan hamda ularni yechimlari bo'yicha amaliy takliflar hamda tavsiyalar berilgan.

This master's thesis examined investment policy, the use of internal reserves in the implementation of investment policy in Uzbekistan, the theoretical basis for their conduct, features and procedures for implementation. At the same time, the investment potential of Uzbekistan has been analyzed for its reserves, free money of the population, problems in the effective use of domestic opportunities, and practical proposals and recommendations for their solutions have been made.

Kalit so'zlar: investitsiya, ichki zaxira, aktivlar, moliya bozori, tijorat banklari, qimmatli qog'ozlar, emissiya operatsiyalari, aktsiya, fond bozori, investitsiya operatsiyalari, pul mablag'larini jalb qilish, tartibga soluvchi organ, moliyaviy xizmatlar, nazorat.

MUNDARIJA:

Annotatsiya	3
Mundarija	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	6
Keltirilgan qisqartmalar	7
I BOB. KIRISH	8
1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	8
1.2 Tadqiqot maqsadi va vazifalari	10
1.3 Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	10
1.4 Tadqiqot ishining ob'ekti va predmeti	11
1.5 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	12
II ADABIYOTLAR SHARHI.....	
BOB.	13
2.1. Nazariy adabiyotlar sharhi.....	13
2.2. Investitsiya siyosatini amalga oshirishning nazariy asoslari	17
2.3. Adabiyotlar sharhi bo'yicha qisqacha xulosa	25
2.4. Tadqiqot gipotezasi.....	26
III TADQIQOT MYETODOLOGIYASI	
BOB.	27
3.1. Tadqiqot dizayni	27
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	27
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	32
IV TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALARI.....	
BOB.	33
4.1. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari investitsion loyihalarni kreditlashning nazariy asoslari.....	33
4.2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilangan investitsiyalar tahlili.....	37
4.3. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining investitsion faoliyati tahlili	45
V XULOSA VA TAKLIFLAR	
BOB.	53
5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy yangiligi.....	53
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	55
5.3. Tadqiqot qamrovi va chekllovleri.....	61
5.4. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.....	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	64

KIRISH

1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbliги

Jahonda investitsiyalarga nisbatan talabning oshishi innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi va kapitalga bo‘lgan ehtiyojni ortib borishi tufayli yuz bermoqda. Ushbu sharoitda investitsiyalarni ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari bilan bog‘lash muhim ahamiyat kasb etmoqda. BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi va Osiyo va Tinch okeani bo‘yicha Iqtisodiy-ijtimoiy komissiyasining investitsiyalar bo‘yicha yillik hisobotlarida dunyodagi investitsiya siyosati va investitsiya oqimini rag‘batlantirish bo‘yicha faoliyatni monitoring qilish asosida ularni bugungi kundagi dolzarb masalalar bilan o‘zaro bog‘liqligi qayd etilgan. Dolzarb masalalar qatorida pandemiyadan keyingi faoliyat, maxsus iqtisodiy zonalarni shakllantirish, sanoat siyosati va Barqaror rivojlanish maqsadlarini ko‘rsatish mumkin. Investitsiyalardan samarali foydalanish muammolari hal qilish Xalqaro valyuta fondi va Jhon banki kabi nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatida muhim o‘rin egallagan.

Yurtimizda so‘nggi yillarda xorijiy investitsiyalar uchun keng yo‘l ochish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyaviy muhitni tubdan yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini ko‘payishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda investitsiya faoliyatida ijobiy natijalarga erishilishi, investitsiyaviy loyihalarni samarali amalga oshirishda va investitsiya sohasining rivojlanishida bank tizimining o‘rni ortib bormoqda. Bunda banklarning vositachilik roli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tijorat banklarining investitsiyaviy kreditlar berish salohiyati ularning resurs bazasining yetarligi bilan belgilanadi. Mamlakatimiz tijorat banklarining resurs bazasi ikki asosiy manbadan, ya’ni depozit va kapitaldan iborat.

Umuman olganda davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ichki va tashqi investitsiyalarni iqtisodiyotga safarbar qilish va oqilona investitsiya siyosatini